O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI QIZILTEPA TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Qiziltepa tumani, O‘zbekiston shoh ko'chasi 43-uy

2023 - yil 25 - dekabr 319-5-72-Q/23 Qiziltepa tumani hokimligi

Tuman hokimining “Homiy tayinlash to‘g‘risida”gi qarorini bekor qilish to‘g‘risida

Qiziltepa tuman “Toshmachit” mahallasida yashovchi fuqaro D.Davronovning 2023-yil 15-dekabrdagi tuman hokimining 2023-yil 14-apreldagi 84-5-72-Q/23-sonli “Homiy tayinlash to‘g‘risida”gi qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizasi, Qiziltepa tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining 2023-yil 11-dekabrdagi 07-04/01-04/52-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasining “Vasiylik va homiylik to‘g‘risida”gi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunlariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Qiziltepa tuman “Toshmachit” mahallasida yashovchi fuqaro D.Davronovning 2023-yil 15-dekabrdagi arizasi va Qiziltepa tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining 2023-yil 11-dekabrdagi 07-04/01-04/52-sonli xati inobatga olinsin.

2. Tuman hokimining 2023-yil 14-apreldagi “Homiy etib tayinlash to‘g‘risida”gi 84-5-72-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O‘.Istamov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **B.Bobomurodov**